



## 1920–1950-YILLARDA BUXORO VOHASINING ARXEOLOGIK O'RGANILISHI

Ochilova Marjona

BuxDU, Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası 2- bosqich magistranti

Elova Dilnoza Davlatovna

Ilmiy rahbar, BuxDU, Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti,  
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19200078>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-mart 2026 yil

Ma'qullandi: 22-mart 2026 yil

Nashr qilindi: 24-mart 2026 yil

### KEYWORDS

*Buxoro vohasi, arxeologik tadqiqotlar, Kampirdevor, A.Yu. Yakubovskiy, V.A. Shishkin, Varaxsha, Poykent, tarixiy topografiya, arxeologik ekspeditsiya, mudofaa tizimi.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada 1920–1950-yillarda Buxoro vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari, ilmiy natijalari va tarixshunoslikdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda sovet davrining dastlabki bosqichida faoliyat yuritgan arxeologik ekspeditsiyalar, jumladan, A.Yu. Yakubovskiy, V.A. Shishkin hamda boshqa olimlarning Buxoro vohasi hududida amalga oshirgan izlanishlari ilmiy jihatdan umumlashtiriladi. Xususan, Kampirdevor mudofaa tizimi, Varaxsha, Poykent, Vardonze singari yodgorliklarning o'rganilish jarayoni, ularning tarixiy-topografik xususiyatlari hamda voqa tarixini yoritishdagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, maqolada mazkur davr tadqiqotlarining metodik xususiyatlari, dala kuzatuvlari va dastlabki qazishma natijalarining ilmiy ahamiyati baholanadi. Tadqiqot natijalari 1920–1950-yillarda Buxoro vohasining arxeologik jihatdan o'rganilishi keyingi bosqichdagi ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy va manbaviy asos bo'lib xizmat qilganini ko'rsatadi.*

Buxoro vohasi qadimdan Markaziy Osiyoning muhim tarixiy-madaniy hududlaridan biri sifatida ajralib turadi. Ushbu vohaning arxeologik jihatdan o'rganilishi uning qadimgi davrlardagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, XX asrning 1920–1950-yillari Buxoro vohasi arxeologiyasining shakllanishida dastlabki ilmiy bosqich sifatida alohida o'rin tutadi.

Mazkur davrda voqa hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Varaxsha, Vardonze, Poykent, Romitan va boshqa qal'a hamda manzilgohlar ilmiy jihatdan o'rganila boshlandi. Bu izlanishlar Buxoro vohasining tarixiy topografiyasi, mudofaa tizimi, shaharsozlik madaniyati va moddiy merosini aniqlashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, ushbu tadqiqotlar keyingi bosqichlarda amalga oshirilgan arxeologik izlanishlar uchun zarur manbaviy va nazariy zamin yaratdi.

Mazkur maqolada 1920–1950-yillarda Buxoro vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari, o‘rganilgan yodgorliklar va ularning ilmiy natijalari tahlil qilinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** 1920–1950-yillarda Buxoro vohasida olib borilgan bevosita arxeologik tadqiqotlar natijalarini aks ettiruvchi ilmiy hisobotlar va maxsus tadqiqotlardan iborat. Bu borada A.Yu. Yakubovskiyning Zarafshon ekspeditsiyasiga oid ishlari Buxoro–Samarqand yo‘li bo‘yidagi qadimiy shahar xarobalari va mudofaa devorlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. V.A. Shishkinning Buxoro vohasining g‘arbiy qismida, xususan Varaxsha, Vardonze va Mag‘oki Attori masjidida olib borgan tadqiqotlari esa vohaning tarixiy topografiyasi, me‘moriy yodgorliklari va madaniy qatlamlarini aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, uning Varaxshaga bag‘ishlangan asarlari ushbu yodgorlikning saroy me‘morchiligi, devoriy suratlari va Buxorxudotlar davridagi o‘rnini yoritishda tayanch manbalardan biridir.

Shuningdek, M.Yu. Saidjanov, I.I. Umnyakov kabi mualliflarning Buxoro va O‘rta Osiyo me‘moriy yodgorliklariga oid asarlari tarixiy obidalarni qayd etish, ta‘mirlash va restavratsiya qilish jarayonlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy tadqiqotlarda esa J. Mirzaahmedov, M.Niyazova, A.T. Ochilov, N.A. Duskarayev, J.M. Eshpulatov, A.I. Torgoev, D.K. Mirzaahmedov va B.G. Kurbanov kabi olimlar ishlari Buxoro vohasi moddiy madaniyati va tarixiy merosini yangicha yondashuvlar asosida talqin etishga xizmat qiladi. Umuman, mavjud adabiyotlar Buxoro vohasining arxeologik o‘rganilishi dastlab ekspeditsiya hisobotlari asosida shakllanganini, keyingi tadqiqotlarda esa ushbu jarayon tarixiy-topografik, me‘moriy va madaniy nuqtayi nazardan yanada chuqurlashtirilganini ko‘rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot tarixiylik, xolislik, izchillik va tizimlilik tamoyillari asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida 1920–1950-yillarda Buxoro vohasida amalga oshirilgan arxeologik izlanishlarga oid ilmiy adabiyotlar, arxeologik ekspeditsiyalar hisobotlari, tarixshunoslikka doir manbalar hamda e‘lon qilingan maqolalar kompleks tahlil qilindi. Mavzuni yoritishda tarixiy-qiyosiy, tahliliy, tavsifiy va umumlashtiruvchi metodlardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** 1920-yillarda Buxoroda amalga oshirilgan dastlabki arxeologik tadqiqotlar orasida Somoniylar maqbarasi bilan bog‘liq izlanishlar alohida o‘rin tutadi. Xususan, 1924-yilda M.Y. Ginzburg ekspeditsiyasi tomonidan mazkur maqbara ilk bor ilmiy asosda tekshirilib<sup>1</sup>, uning tarhi tuzib chiqilgan. Bu holat yodgorlikni tizimli ravishda o‘rganish yo‘lidagi dastlabki bosqichlardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. 1925-yilda M.Y. Saidjanov tomonidan maqbara gumbazi qoplamasini ta‘mirlash ishlari tashkil etilgan<sup>2</sup>.

1926-yilda V.L. Vyatkin tomonidan yodgorlik hududida arxeologik qazishmalar olib borildi. Ayni paytda, muhandis M.M. Loginov tomonidan maqbaraning burchak ustunchalari qisman mustahkamlandi. 1928–1930-yillarda esa P.S. Kasatkin va N.M. Bachinskiy rahbarligida Somoniylar maqbarasida qisman restavratsiya ishlari amalga oshirildi.

<sup>1</sup> Дускараев Н.А., Эшпулатов Ж.М. Проблемы сохранения исторической застройки в современной архитектуре города Бухары // Interpretation and Researches. – 2025. – № 24(46). – URL: <https://inlibrary.uz/index.php/international-scientific/article/view/70168> (дата обращения: 17.03.2026).

<sup>2</sup> Саиджанов М. Ю. Город Бухара и его старинные здания // Перевод со староузбекского и подготовка к изданию Х. Тураева. Рабочие документы ИФЕАК. 2005. Вып. 16. – С. 3–19.

Mazkur tadbirlar mazmuni va ilmiy yo'nalishiga ko'ra, 1920-yillarda Buxoroda arxeologik izlanishlar hamda me'moriy yodgorliklarni qayd etish, o'rganish va saqlashga qaratilgan dastlabki tadqiqotlar sirasiga kiradi. Ayniqsa, Somoniylar maqbarasida olib borilgan kuzatuv, o'lchov, qazishma va mustahkamlash ishlari keyingi davrlarda Buxoro shahridagi tarixiy-arxeologik obidalarni kompleks tarzda tadqiq etish uchun muhim ilmiy zamin yaratdi.

Sovet hokimiyati o'rnatilgandan keyin Buxoro vohasida olib borilgan dastlabki jiddiy arxeologik tadqiqotlar 1934-yilda A.Yu. Yakubovskiy boshchiligida tashkil etilgan Zarafshon ekspeditsiyasi faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir<sup>3</sup>. Ushbu ekspeditsiya O'zbekiston moddiy madaniy merosini muhofaza qilish va o'rganish qo'mitasi hisoblanuvchi O'zkomstaris bilan hamkorlikda faoliyat yuritgan. Tadqiqotlar davomida Buxoro vohasining ko'plab arxeologik yodgorliklari, xususan, Buxoro-Samarqand yo'li bo'yida joylashgan qadimiy shahar xarobalari va ularni o'rab turgan mudofaa devorlari o'rganildi. Ayniqsa, vohaning shimoli-sharqiy qismida saqlanib qolgan mudofaa inshootlari qoldiqlarining tekshirilishi ushbu hududning tarixiy topografiyasi hamda qadimgi mudofaa tizimini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Ekspeditsiya natijalari 1940-yilda nashr etilgan ilmiy hisobotda o'z aksini topgan<sup>4</sup>.

Ekspeditsiya dastlab Buxorodan Samarqandga yo'nalgan karvon yo'llarini o'rganishni rejalashtirgan edi. Tadqiqotlar jarayonida Buxoro vohasining shimoli-sharqiy qismidagi chekka hududlar arxeologik jihatdan ko'zdan kechirildi.

Yakubovskiy ekspeditsiyasi hisobotida Kampirdevor bilan bog'liq muhim tarixiy masalalar ham o'z aksini topgan. Jumladan, unda vohaning o'troq aholisi bilan cho'l va dasht hududlarida yashagan ko'chmanchi xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasi yoritilgan<sup>5</sup>. Biroq Yakubovskiy tomonidan qayd etilgan mazkur arxeologik yodgorliklar keng ko'lamli qazishma ishlari olib borilmasdan, asosan yuzaki kuzatuv asosida o'rganilgan. Ekspeditsiyaning muhim yutuqlaridan biri Hazora arxeologik yodgorligi yaqinida joylashgan Deggaron masjidining aniqlanishi bo'lib, u Buxorodagi mashhur Somoniylar maqbarasidan qadimiylik jihatidan kam emas, degan xulosaga kelindi.

V.A. Shishkin A.Yu. Yakubovskiy bilan bir davrda Buxoro vohasida arxeologik tadqiqotlar olib borgan muhim olimlardan biridir. U Buxorodagi dastlabki ilmiy izlanishlarini 1934-yilda Kampirdevor mudofaa tizimini arxeologik jihatdan o'rganishdan boshladi. Shu maqsadda tadqiqotchi butun Buxoro vohasini aylanib chiqib, keng ko'lamli kuzatuv ishlarini amalga oshirishga intildi. Tadqiqotlar jarayonida vohaning janubiy va sharqiy qismlarida saqlanib qolgan mudofaa devori qoldiqlari ham o'rganildi. Shuningdek, Oqsoch, Xoja Ajuvandi va Quyitepa kabi yodgorliklar ham tekshiruv doirasiga kiritildi.

Izlanishlar davomida devor qoldiqlariga tutash hududlarda joylashgan Quymozor qabristoni, Vardonze, Zandana hamda Varaxsha kabi arxeologik obidalar aniqlandi<sup>6</sup>. Mazkur tadqiqotlar Buxoro vohasining tarixiy topografiyasi va qadimgi mudofaa tizimi haqida muhim ilmiy ma'lumotlar berdi. Biroq ushbu izlanishlarning barchasi asosan Buxoro shahri

<sup>3</sup> Собрание Государственного Эрмитажа. Ч. 1. – Ташкент: Silk Road Media; East Star Media, 2020. – С. 38.

<sup>4</sup> Якубовский А.Ю. Археологическая экспедиция в Зарафшанскую долину в 1934 г. (Из дневника начальника экспедиции) // Труды Отдела Востока Государственного Эрмитажа. – Л.: 1940. – Т. II. – С. 113–164.

<sup>5</sup> Якубовский А.Ю. Археологическая экспедиция в Зарафшанскую долину в 1934 г. (Из дневника начальника экспедиции) // Труды Отдела Востока Государственного Эрмитажа. – Л.: 1940. – Т. II. – С. 113–164.

<sup>6</sup> Шишкин В.А. Археологические работы 1937 года в западной части Бухарского оазиса. – Ташкент, 1940. – С. 50.

tashqarisida olib borilgan bo'lib, shaharning o'zi hali maxsus arxeologik tadqiqotlarni kutayotgan edi.

Buxoro shahrining o'zida amalga oshirilgan dastlabki arxeologik kuzatuvlar ham 1934-yilda V.A. Shishkin nomi bilan bog'liqdir. U Mag'oki Attori masjidi hududida olib borgan tadqiqotlari orqali shahar tarixiga oid dastlabki arxeologik ma'lumotlarni qo'lga kiritdi<sup>7</sup>.

V.A. Shishkin 1937-yildan boshlab Buxoro vohasining g'arbiy qismida joylashgan Varaxsha yodgorligini muntazam ravishda o'rganishga kirishdi. Dastlabki qazishmalar davomida u ochilgan inshootlarning shakliy tuzilishi va balandlik ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratdi. Tadqiqotchi ushbu qazishmalar katta ilmiy istiqbolga ega ekanini anglab, mazkur hududni yirik me'moriy majmuaning tarkibiy qismi sifatida baholadi. Varaxshadagi xonalardan birini qazish davomida uning devorlari turli shakldagi bezak va dekorativ unsurlar bilan qoplanganligi aniqlandi. Mazkur topilmalar keyinchalik sosoniylar davri badiiy uslubiga mansub deb e'tirof etildi [10, 9–27-b.].

Varaxshaning arxeologik o'rganilish tarixini olimlar shartli ravishda uch bosqichga ajratishgan: birinchi bosqich 1937–1940-yillarda hududda olib borilgan tadqiqotlar; ikkinchi bosqich 1947–1954-yillarda amalga oshirilgan izlanishlar; uchinchi bosqich 1970–1990-yillarda olib borilgan tadqiqotlar.

Varaxsha yodgorligini ilmiy jihatdan o'rganish 1937-yildan boshlab V.A. Shishkin nomi bilan bog'liq holda rivojlandi. U Buxoro vohasining g'arbiy qismida joylashgan qadimiy sug'orish maydonlari, xususan Varaxsha yodgorligi va uning atrofi bo'yicha arxeologik tadqiqotlar olib bordi. Ushbu izlanishlar natijalari asosan V.A. Shishkinning ilmiy nashrlarida o'z aksini topgan. Uning rahbarligida Varaxshada olib borilgan qazishmalar davomida aniqlangan tasviriy san'at namunalari jahon ilmiy jamoatchiligi e'tiborini tortgan muhim topilmalar sirasiga kiradi [1].

Varaxsha nisbatan kichik shahar bo'lib, maydoni taxminan 9–10 gektarni tashkil etadi. O'z davrida u hukmdorlar, ya'ni Buxorxudotlar qarorgohi sifatida faoliyat yuritgan. Keyingi davrlarda esa mazkur hudud jonsiz, suvsiz va qumli sahro tarkibiga aylangan. 1937-yilda V.A. Shishkin tomonidan o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida ushbu cho'l hududi qariyb 500 kvadrat kilometr maydonni qamrab olishi aniqlangan<sup>8</sup>. Bu yerda katta va kichik tepaliklar, mustahkam aholi manzilgohlari, turli shakldagi yo'nalishlar hamda qadimiy sug'orish tizimlari qoldiqlari qayd etilib, o'rganilgan.

1937-yilda V.A. Shishkin Buxoro vohasining g'arbiy qismida joylashgan va arxeologik materiallarining xususiyati bilan ajralib turuvchi yettita kichik tepalikni ham tadqiq etdi. 1937, 1938 va 1939-yillarda Varaxshada amalga oshirilgan arxeologik izlanishlarning asosiy vazifalaridan biri shahar madaniy qatlamlari ketma-ketligini aniqlashdan iborat bo'ldi. Shu maqsadda yodgorlikning markaziy qismida shurf qazilib, u materik qatlamigacha yetkazildi. Qatlamlarning umumiy chuqurligi deyarli 10 metrni tashkil etgani yodgorlikning nihoyatda qadimiy ekanini ko'rsatadi.

<sup>7</sup> Шишкин В.А. Раскопки в мечети Магаки-Аттари в Бухаре // Труды Института истории и археологии АН УзССР. – Ташкент, 1955. – Вып. 7. – С. 29–60.

<sup>8</sup> Шишкин В.А. Археологические работы 1937 года в западной части Бухарского оазиса. – Ташкент, 1940. – 50 с.

1937-yildagi qidiruv ishlari natijasida Varaxshada Buxoro vohasini arablar istilosigacha boshqargan Buxorxudotlar sulolasiga tegishli saroy qoldiqlari mavjud, degan xulosaga keldi<sup>9</sup>. 1938–1939-yillarda olib borilgan qazishmalar esa ushbu taxminni to'liq tasdiqladi. Yodgorlik hududida ko'p xonali yirik bino qoldiqlari aniqlanib, u shahardagi eng katta inshoot izlaridan biri sifatida baholandi. Mazkur bino devoriy suratlar va ganch o'ymakorligi namunalari bilan bezatilgan edi. Xususan, Varaxshaning Qizil zalidagi rasmlarda qora kuchlarga qarshi kurash, ov manzaralari, fil ustidagi chavandozning yirtqich sher va gepard hujumini qaytarayotgan sahnalari tasvirlangan<sup>10</sup>. Sharqiy zalda esa ko'p syujetli kompozitsiyalar orasida oq kiyimda, beliga qilich osgan holda taxtda o'tirgan hukmdor tasviri alohida diqqatga sazovordir.

Shu davrda, xususan 1939–1940-yillarda Poykent shahrida ham arxeologik tadqiqotlar amalga oshirildi. Poykent yodgorligini o'rganishda A.Yu. Yakubovskiy, V.N. Kesaev va V.A. Shishkin ishtirok etdi<sup>11</sup>. Ushbu tadqiqotlar natijasida shahar yodgorligining topografik xaritasi tuzildi<sup>12</sup>.

Ikkinchi jahon urushi sababli vaqtincha to'xtatilgan qazishma ishlari 1947–1949-yillarda qayta tiklandi. Bu davrdan boshlab Varaxshadagi tadqiqotlar O'zR FA Tarix va arxeologiya institutining O'zbekiston–Zarafshon arxeologik ekspeditsiyasi maxsus bo'linmasi tomonidan muntazam ravishda olib borildi.

1951–1954-yillarda olib borilgan tadqiqotlar asosan shahar hayotining so'nggi bosqichlari, ya'ni o'rta asrlarga oid qatlamlarni o'rganishga qaratilgan<sup>13</sup>. Xususan, 1953–1954-yillarda S.K. Kabanov tomonidan aniqlangan arxeologik materiallar asosida miloddan avvalgi II–I asrlar hamda milodiy davr boshlariga oid mudofaa inshooti topib o'rganilgan.

**Xulosa.** 1920–1950-yillarda Buxoro vohasining arxeologik o'rganilishi mazkur hudud tarixini ilmiy asosda tadqiq etishning dastlabki va muhim bosqichini tashkil etadi. Bu davrda Somoniylar maqbarasi, Kampirdevol, Varaxsha, Poykent, Vardonze, Romitan va boshqa yodgorliklarda olib borilgan kuzatuv, qazishma hamda qayd ishlari vohaning tarixiy topografiyasi, mudofaa tizimi, shaharsozlik madaniyati va moddiy merosiga oid muhim ilmiy ma'lumotlarni to'plash imkonini berdi.

Ayniqsa, A.Yu. Yakubovskiy, V.A. Shishkin, V.L. Vyatkin va boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida Buxoro vohasining ko'plab arxeologik obidalari ilmiy muomalaga kiritildi, ularning ayrimlari bo'yicha dastlabki xronologik va topografik tavsiflar ishlab chiqildi. Mazkur izlanishlar nafaqat o'z davri uchun muhim ilmiy natijalar berdi, balki keyingi bosqichlardagi arxeologik tadqiqotlar uchun ham mustahkam manbaviy va nazariy zamin yaratdi. Shu bois 1920–1950-yillardagi arxeologik tadqiqotlar Buxoro vohasi tarixshunosligi va arxeologiyasi taraqqiyotida alohida o'rin tutadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

<sup>9</sup> Торгоев А.И., Мирзаахмедов Д.К., Курбанов Б.Г. Художественный металл Бухары и Бухарского оазиса VIII–XIV вв. – Самарканд: МИЦАИ, 2023. – С. 9–22.

<sup>10</sup> Шишкин В.А. Варахша. – М., 1963. – С. 15.

<sup>11</sup> Якубовский А. Ю. Зарафшанская археологическая экспедиция 1939 г. Краткие сообщения о докладах и полевых исследованиях института истории материальной культуры. Вып. IV. Издательство Академик Наук СССР. –М.-Л. 1940. –С.51-66.; Болтаев Б.Б. Мустакиллик йилларида Бухоро вилоятидаги муассаса, корхона, музейларининг ташкил топиш ва ривожланиш тенденцияси: автореф. дис. ... доктора философии (PhD) по историческим наукам. – Бухара, 2023. – С. 12.

<sup>12</sup> Мирзокулов Б. Бухоро тарих зарварақларида. – Т., 2016. – Б. 8–9.

<sup>13</sup> Шишкин В.А. Некоторые итоги археологических работ на городище Варахша (1947–1953 гг.) // Труды Института истории и археологии АН УзССР. – Ташкент, 1956. – Вып. 7. – С. 10.

1. Шишкин В.А. Археологические работы 1937 года в западной части Бухарского оазиса. – Ташкент, 1940. – С. 50.
2. Якубовский А.Ю. Археологическая экспедиция в Зарафшанскую долину в 1934 г. (Из дневника начальника экспедиции) // Труды Отдела Востока Государственного Эрмитажа. – Л., 1940. – Т. 2. – С. 113–164.
3. Якубовский А.Ю. Зарафшанская археологическая экспедиция 1939 г. // Краткие сообщения о докладах и полевых исследованиях Института истории материальной культуры. – М.–Л., 1940. – Вып. 4. – С. 51–66.
4. Шишкин В.А. Раскопки в мечети Магаки-Аттари в Бухаре // Труды Института истории и археологии АН УзССР. – Ташкент, 1955. – Вып. 7. – С. 29–60.
5. Шишкин В.А. Некоторые итоги археологических работ на городище Варахша (1947–1953 гг.) // Труды Института истории и археологии АН УзССР. – Ташкент, 1956. – Вып. 7. – С. 10.
6. Шишкин В.А. Варахша. – М., 1963. – С. 15.
7. Саиджанов М.Ю. Город Бухара и его старинные здания / пер. со староузбекского и подгот. к изд. Х. Тураева // Рабочие документы ИФЕАК. – 2005. – Вып. 16. – С. 3–19.
8. Мирзокулов Б. Бухоро тарих зарварақларида. – Т., 2016. – Б. 8–9.
9. Собрание Государственного Эрмитажа. Ч. 1. – Ташкент: Silk Road Media; East Star Media, 2020. – С. 38.
10. Болтаев Б.Б. Мустақиллик йилларида Бухоро вилоятидаги муассаса, корхона, музейларининг ташкил топиш ва ривожланиш тенденцияси: автореф. дис. ... доктора философии (PhD) по историческим наукам. – Бухара, 2023. – С. 12.
11. Торгоев А.И., Мирзаахмедов Д.К., Курбанов Б.Г. Художественный металл Бухары и Бухарского оазиса VIII–XIV вв. – Самарканд: МИЦАИ, 2023. – С. 9–22.
12. Дускараев Н.А., Эшпулатов Ж.М. Проблемы сохранения исторической застройки в современной архитектуре города Бухары // Interpretation and Researches. – 2025. – № 24(46). – URL: <https://inlibrary.uz/index.php/international-scientific/article/view/70168> (дата обращения: 17.03.2026).